



MAHALLIY BYUDJETLARNING DAROMAD VA XARAJATLAR NOMUTANOSIBLIGI TAHLILI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

PhD, dots. Sarsenbaev Baxitjan

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

ORCID: 0000-0002-6884-2285

bsarsenbaev83@gmail.com

Sultanova Feruza

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-0223-8471

sultanovaf164@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini mustahkamlash, yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga ajratiladigan transfertlar hajmi va ularni boshqarish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlari dinamikasi o'rganilib, daromadlarni oshirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, mahalliy byudjet daromad va xarajatlari o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelgan holatlarda byudjet barqarorligini ta'minlash, xususan, tarnsfertlar samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjet, barqaror rivojlanish, tartibga soluvchi transfertlar, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy byudjet xarajatlari, daromadlari dinamikasi, xarajatlari dinamikasi, institutsional islohotlar, mahalliy byudjetlar balansi, subvensiya.

АНАЛИЗ ДИСПРОПОРЦИЙ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ И ПУТИ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

PhD, доц. Сарсенбаев Бахитжан

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Султанова Феруза

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Аннотация. В статье анализируются вопросы укрепления доходной базы местных бюджетов в Республике Узбекистан, объемы трансфертов, выделяемых из вышестоящих бюджетов нижестоящим, а также особенности их управления. В ходе исследования изучена динамика доходов и расходов местных бюджетов, обоснована необходимость увеличения доходов и эффективного использования финансовых ресурсов. Кроме того, разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на обеспечение бюджетной устойчивости в условиях диспропорции между доходами и расходами местных бюджетов, в частности на повышение эффективности трансфертов.

Ключевые слова: местный бюджет, устойчивое развитие, регулирующие трансферты, доходы местного бюджета, расходы местного бюджета, динамика доходов, динамика расходов, институциональные реформы, баланс местных бюджетов.

ANALYSIS OF THE DISPROPORTION BETWEEN REVENUES AND EXPENDITURES OF LOCAL BUDGETS AND WAYS TO IMPROVE IT

PhD, assoc. prof. Sarsenbaev Bakhitjan
Karakalpak State University named after Berdakh
Sultanova Feruza
Karakalpak State University named after Berdakh

Abstract. *This article examines the strengthening of the revenue base of local budgets in the Republic of Uzbekistan, the volume of interbudgetary transfers allocated from higher-level budgets to lower-level budgets, and the mechanisms for managing them. The study analyses the dynamics of local budget revenues and expenditures and substantiates the need to increase revenues and ensure the efficient use of financial resources. In addition, the article develops scientific proposals and practical recommendations aimed at maintaining budget stability in cases of imbalance between local budget revenues and expenditures, particularly by improving the effectiveness of transfers.*

Keywords: *local budget, sustainable development, regulatory transfers, local budget revenues, local budget expenditures, revenue dynamics, expenditure dynamics, institutional reforms, local budget balance, subvention.*

Kirish.

Hozirgi sharoitda davlat moliyasini samarali boshqarish tizimida mahalliy byudjetlarning roli va ahamiyati izchil ravishda kuchayib bormoqda. Hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, aholi turmush darajasini yuksaltirish hamda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish jarayonlarida mahalliy byudjetlar muhim moliyaviy tayanch sifatida xizmat qiladi. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi, avvalo, ularning o'z daromad manbalari hisobidan xarajatlarni qoplash qobiliyati, moliyaviy mustaqillik darajasi hamda hududiy investitsiya loyihalarini moliyalashtirish salohiyati bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ularning daromad bazasini kengaytirish davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mahalliy byudjetlar daromad manbalarini kengaytirish masalasi yuzasidan bir qator olimlar ham o'z ilmiy qarashlarini bildirishgan. Jumladan, Xaydarovning fikriga ko'ra, mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirish hamda viloyatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish uchun xorijiy investorlarni faol jalb etishni rag'batlantirish lozim. Bu borada mamlakat miqyosida xorijiy investorlar amalga oshira olmaydigan tadbirkorlik va tijorat faoliyati turlari hamda soha va tarmoqlar ro'yxatini aniq belgilab, qolgan barcha yo'nalishlar uchun ochiq va qulay sharoit mavjudligi yaqqol ko'rsatib berilishi zarur (Shernaev va boshq., 2019).

Xaydarovning ta'kidlashicha, byudjet tizimi tarkibidagi byudjetlarni markazsizlashtirish byudjet daromadlari hamda turli darajadagi boshqaruv organlarining vakolatlari o'rtasida, shuningdek byudjet xarajatlari bo'yicha majburiyatlar bilan mutanosiblikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazsizlashtirish jarayoni natijasida davlat xizmatlarini tashkil etish va ko'rsatish mahalliy aholi ehtiyojlarini to'liq qondirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga, mahalliy byudjet daromadlari hamda davlat byudjeti xarajatlari hududlarda yashovchi aholining manfaatlarini ta'minlaydigan daromad qismini mustahkamlashga va milliy daromadni taqsimlash asosida uning natijalarini barqarorlashtirishga yo'naltiriladi (Malikov va boshq., 2019).

Xorijiy olim Gorinaning fikriga ko'ra, moliyaviy barqarorlik mahalliy hokimiyatning aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha zimmasiga yuklangan majburiyatlarini uzluksiz ravishda

bajarish, shuningdek, mahalliy byudjetning qisqa va uzoq muddatli istiqbolda barqaror hamda qoniqarli moliyaviy holatini ta'minlash salohiyatini ifodalaydi. Muallifning ta'kidlashicha, mahalliy hokimiyat organlarining byudjet xarajatlarini asosan o'z daromadlari hisobidan qoplash imkoniyatiga ega bo'lishi mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi (Gorina, 2013).

Takaaki ta'kidlashicha, markaziy hukumat tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy transfertlar davlat xizmatlarini moliyalashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlasa-da, ular ayni paytda mahalliy daromad bazasini shakllantirish zaruratini ham ma'lum darajada pasaytirishi mumkin (Takaaki, 2018).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni baholashda tizimli yondashuv, qiyosiy va statistik tahlil, induksiya va deduksiya hamda iqtisodiy-matematik usullardan kompleks ravishda foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda mahalliy byudjetlarni shakllantirish hamda ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash borasida izchil institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli Farmoni qabul qilindi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017). Mazkur hujjat mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlarining mas'uliyatini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 2022-2025 yillarda hududlar bo'yicha mahalliy byudjetlar daromadlari dinamikasi (milliard so'mda)

No	Hududlar	2022 yil daromadlar ijrosi	2023 yil daromadlar ijrosi	2024 yil daromadlar ijrosi	2025 yil daromadlar prognozi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 499,5	2 843,6	2 933,1	3 346,2
2	Andijon viloyati	3 246,5	3 931,2	3 782,0	4 512,9
3	Buxoro viloyati	3 425,2	3 876,5	3 898,8	4 573,2
4	Jizzax viloyati	1 822,7	2 227,9	2 151,1	2 523,4
5	Qashqadaryo viloyati	3 919,9	4 607,5	4 572,5	5 264,2
6	Navoiy viloyati	2 432,9	3 039,3	2 690,3	3 384,2
7	Namangan viloyati	3 265,3	3 516,8	3 391,4	3 942,8
8	Samarqand viloyati	4 197,6	5 100,1	5 312,6	5 915,2
9	Surxondaryo viloyati	2 670,5	3 043	2 989,1	3 464,6
10	Sirdaryo viloyati	1 147,8	1 390,3	1 528,1	1 739,4
11	Toshkent viloyati	4 526,0	6 024,1	5 448,4	6 819,4
12	Farg'ona viloyati	4 778,5	5 169,3	5 273,6	6 027,4
13	Xorazm viloyati	2 384,2	2 740,6	2 876,9	3 166,4
14	Toshkent shahri	7 073,1	8 218,2	10 176,8	11 156,9
Jami:		47 390,2	55 728,9	57 024,6	65 836,3

Har bir mahalliy byudjetning moliyaviy barqarorligi, avvalo, uning daromad va xarajatlar hajmi, shuningdek, ushbu ko'rsatkichlarning tarkibiy tuzilishi bilan belgilanadi. Agar

mahalliy byudjet daromadlari uning xarajatlarini to'liq qoplash imkonini bersa, bunday byudjet moliyaviy jihatdan barqaror deb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy byudjetlarning daromad manbalari, ularning shakllanish mexanizmlari va tarkibiy tuzilishini, shuningdek, xarajatlar tarkibini ilmiy asosda tahlil qilish muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi (1-4-jadvallar).

4-jadval ma'lumotlari 2022-2025 yillarda hududlar kesimida mahalliy byudjetlar daromadlari izchil o'sish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, jami daromadlar 2022 yildagi 47390,2 mlrd so'mdan 2023 yilda 55728,9 mlrd so'mga, 2024 yilda 57 024,6 mlrd so'mga va 2025 yil prognozida 65836,3 mlrd so'mga yetishi kutilmoqda. Bu esa 2022-2025 yillar oralig'ida daromadlar hajmining sezilarli kengayishini, shuningdek, hududiy byudjet salohiyatining bosqichma-bosqich mustahkamlanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, o'sish sur'atlari bir xil emas: 2023 yilda nisbatan yuqori o'sish kuzatilgan bo'lsa, 2024 yilda o'sish sekinlashgan, 2025 yilga kelib esa yana sezilarli tiklanish qayd etilgan. Mazkur holat hududlar daromad bazasining makroiqtisodiy va institutsional omillarga sezgirligini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida daromadlar tarkibida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 2022 yildagi 7073,1 mlrd so'mdan 2025 yilda 11 156,9 mlrd so'mga yetishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, Toshkent viloyati, Farg'ona, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari ham daromad hajmi bo'yicha yetakchi hududlar qatorida turadi. Aksincha, Sirdaryo viloyati butun kuzatuv davrida eng past daromad ko'rsatkichiga ega bo'lib qolmoqda, garchi unda ham ijobiy o'sish dinamikasi mavjud bo'lsa ham 2023-2024 yillar oralig'ida ayrim hududlarda, xususan Toshkent viloyati, Navoiy, Andijon va Namangan viloyatlarida vaqtincha pasayish kuzatilgan bo'lsa ham 2025 yil prognozida bu hududlarda ham qayta o'sish kutilmoqda. Umuman olganda, jadval mahalliy byudjetlar daromadlarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganini, shu bilan birga, yirik iqtisodiy markazlar va sanoat salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda daromad bazasi ancha barqaror shakllanayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2022-2025 yillarda hududlar bo'yicha mahalliy byudjetlar xarajatlari dinamikasi (milliard so'mda)

№	Hududlar	2022 yil xarajatlar ijrosi	2023 yil xarajatlar ijrosi	2024 yil xarajatlar ijrosi	2025 yil xarajatlar prognozi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 939,8	6 805,9	5 637,5	5 558,2
2	Andijon viloyati	6 869,8	8 137,2	6 757,4	6 688,7
3	Buxoro viloyati	5 350,6	5 968,4	5 348,1	5 263,7
4	Jizzax viloyati	3 928,5	4 645,7	3 847,2	3 623,5
5	Qashqadaryo viloyati	8 812,2	10 519,3	6 585,8	6 232,7
6	Navoiy viloyati	3 469,06	4 046,06	3 802,6	3 476,9
7	Namangan viloyati	6 927,5	4 046,06	5 983,4	6 166,3
8	Samarqand viloyati	7 889,5	8 113,5	7 678,6	8 012,3
9	Surxondaryo viloyati	6 527,8	8 778,5	5 541,5	5 520,6
10	Sirdaryo viloyati	2 671,08	7 943,9	2 752,1	2 552,3
11	Toshkent viloyati	6 838,2	7 770,2	7 041,6	7 082,0
12	Farg'ona viloyati	8 748,9	9 889,8	8 131,9	8 170,3
13	Xorazm viloyati	4 485,4	5 609,9	4 691,1	4 497,5
14	Toshkent shahri	10 328,4	10 364,07	13 013,0	11 419,1
Jami:		88 787,4	101 740	86 811,6	84 264,1

Jadval ma'lumotlari 2022-2025 yillarda hududlar kesimida mahalliy byudjetlar xarajatlari dinamikasi notekis, biroq umumiy jihatdan murakkab tendensiyani namoyon etishini ko'rsatadi. Xususan, jami xarajatlar 2022 yildagi 88787,4 mlrd so'mdan 2023 yilda

101740,0 mlrd so'mga oshib, sezilarli o'sish qayd etgan. Biroq 2024 yilda xarajatlar 86811,6 mlrd so'mga tushib ketgan va 2025 yil prognozida 84264,1 mlrd so'm darajasida shakllanishi kutilmoqda. Bu holat 2023 yilda xarajatlar hajmining keskin kengayganini, keyingi yillarda esa byudjet xarajatlarini maqbullashtirish, ustuvorliklarni qayta ko'rib chiqish hamda fiskal intizomni kuchaytirish jarayonlari kuchayganini anglatadi.

Hududlar kesimida eng yuqori xarajatlar, odatdagidek, Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Poytaxt xarajatlari 2022 yildagi 10328,4 mlrd so'mdan 2024 yilda 13013,0 mlrd so'mga oshgan bo'lsa ham 2025 yil prognozida 11419,1 mlrd so'mga pasayishi ko'zda tutilgan. Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon va Toshkent viloyatlari ham nisbatan yuqori xarajat hajmi bilan ajralib turadi. Aksincha, Navoiy, Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida xarajatlar hajmi pastroq bo'lib qolmoqda, bu esa mazkur hududlarning demografik va iqtisodiy masshtabi nisbatan kichikligi bilan izohlanadi. Ayrim hududlarda, xususan Qashqadaryo va Surxondaryoda 2023 yilda xarajatlarning keskin oshishi kuzatilgan bo'lsa, 2024-2025 yillarda ular sezilarli kamaygan. Umuman olganda, jadval mahalliy byudjet xarajatlarining hududlar bo'yicha differensiallashganligini, shuningdek, xarajat siyosatida davriy tebranishlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, jadvaldagi ayrim satrlarda raqamlarning formatlanishida texnik nomuvofiqliklar ko'rinadi, shuning uchun aniq iqtisodiy xulosa chiqarishda ularni qo'shimcha tekshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2022-2025 yillarda mahalliy byudjetlarga Respublika byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi transfertlar dinamikasi (milliard so'mda)

No	Hududlar	2022 yil ijrosi	2023 yil ijrosi	2024 yil ijrosi	2025 yil prognozi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 440,3	3 962,2	2 077,9	2 212,0
2	Andijon viloyati	3 623,3	4 206,04	1 913,8	2 175,8
3	Buxoro viloyati	1 925,4	2 091,8	361,1	690,5
4	Jizzax viloyati	2 105,7	2 417,7	888,6	1 100,1
5	Qashqadaryo viloyati	4 892,2	5 911,7	927,0	968,6
6	Navoiy viloyati	1 036,1	1 006,6	182,5	92,5
7	Namangan viloyati	3 662,1	4 596,7	1 984,0	2 223,5
8	Samarqand viloyati	3 691,9	3 678,3	1 588,5	2 097,1
9	Surxondaryo viloyati	3 857,3	4 900,9	1 832,8	2 056,0
10	Sirdaryo viloyati	1 523,2	1 757,3	901,8	812,9
11	Toshkent viloyati	2 312,2	1 746,1	517,4	262,6
12	Farg'ona viloyati	3 970,4	4 720,5	1 943,7	2 142,9
13	Xorazm viloyati	2 101,2	2 869,3	1 203,8	1 331,1
14	Toshkent shahri	3 255,2	2 145,8	513,9	262,2
Jami:		41 397,2	46 011,7	16 836,7	18 427,8

Jadval ma'lumotlari 2022-2025 yillarda respublika budjetidan mahalliy budjetlarga ajratilgan tartibga soluvchi transfertlar hajmi hududlar kesimida sezilarli farqlanishini ko'rsatadi. Umumiy hajm 2022 yilda 41397,2 mlrd so'mni, 2023 yilda esa 46011,7 mlrd so'mni tashkil etib, yuqori darajada saqlangan. Biroq 2024 yilda bu ko'rsatkich keskin kamayib, 16836,7 mlrd so'mga tushgan. 2025 yil uchun esa 18427,8 mlrd so'mlik prognoz berilgan bo'lib, bu qisman tiklanishni anglatadi.

Hududlar kesimida eng katta transfertlar Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Namangan, Andijon va Qoraqalpog'iston Respublikasiga yo'naltirilgan. Bu holat mazkur hududlarning o'z daromad bazasi nisbatan cheklanganligi va budjet taqchilligini qoplash zarurati bilan izohlanadi. Umuman olganda, jadval mahalliy budjetlar daromadlarida hududiy

tafovutlar saqlanib qolayotganini va transfertlar fiskal tenglashtirishning muhim vositasi bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

4-jadval ma'lumotlari 2024 yilda O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarning daromadlari, xarajatlari hamda respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi transfertlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi. Umumiy ko'rsatkichlarga ko'ra, mahalliy budjetlar daromadlari 57024,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, xarajatlar hajmi 86811,6 mlrd so'mga yetgan. Natijada sezilarli darajadagi fiskal tafovut yuzaga kelib, ushbu tafovutni qoplashda 16836,7 mlrd so'mlik transfertlar muhim manba sifatida xizmat qilgan.

4-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 2024 yil uchun mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlari va Respublika byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi transfertlar (milliard so'mda)

No	Hududlar	2024 yil daromadlar ijrosi	2024 yil xarajatlar ijrosi	2024 yil uchun transfertlar
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 933,1	5 637,5	2 077,9
2	Andijon viloyati	3 782,0	6 757,4	1 913,8
3	Buxoro viloyati	3 898,8	5 348,1	361,1
4	Jizzax viloyati	2 151,1	3 847,2	888,6
5	Qashqadaryo viloyati	4 572,5	6 585,8	927,0
6	Navoiy viloyati	2 690,3	3 802,6	182,5
7	Namangan viloyati	3 391,4	5 983,4	1 984,0
8	Samarqand viloyati	5 312,6	7 678,6	1 588,5
9	Surxondaryo viloyati	2 989,1	5 541,5	1 832,8
10	Sirdaryo viloyati	1 528,1	2 752,1	901,8
11	Toshkent viloyati	5 448,4	7 041,6	517,4
12	Farg'ona viloyati	5 273,6	8 131,9	1 943,7
13	Xorazm viloyati	2 876,9	4 691,1	1 203,8
14	Toshkent shahri	10 176,8	13 013,0	513,9
	Jami:	57 024,6	86 811,6	16 836,7

Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, deyarli barcha viloyatlarda xarajatlar daromadlarga nisbatan yuqori bo'lib, bu holat mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi yetarli darajada emasligini anglatadi. Xususan, Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyatlarida xarajatlar hajmi sezilarli darajada yuqori bo'lib, ushbu hududlarda transfertlarga ehtiyoj nisbatan katta ekanligi kuzatiladi. Eng yuqori transfertlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (2077,9 mlrd so'm), Namangan (1984,0 mlrd so'm), Farg'ona (1943,7 mlrd so'm) va Andijon (1913,8 mlrd so'm) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda transfertlar hajmining nisbatan pastligi ularning iqtisodiy salohiyati yuqoriroq ekanligidan dalolat beradi. Masalan, Navoiy viloyatida transfertlar hajmi atigi 182,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu hududning yuqori daromad bazasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Toshkent shahri eng katta daromad (10176,8 mlrd so'm) va xarajatlar (13013,0 mlrd so'm) hajmiga ega bo'lishiga qaramay, transfertlar ulushi nisbatan past (513,9 mlrd so'm) darajada qolmoqda.

Umuman olganda, mazkur jadval mahalliy budjetlar o'rtasida daromad va xarajatlar nomutanosibliigi saqlanib qolayotganini hamda tartibga soluvchi transfertlar hududlar o'rtasidagi fiskal tengsizlikni yumshatishda muhim instrument sifatida xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy daromad bazasini kengaytirish va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

5-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 2024 yil uchun mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlari prognozi va ijrosi va Respublika byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi transfertlar prognozi va ijrosi (milliard so'mda)

No	Hududlar	Daromadlar prognozi	Daromadlar ijrosi	Xarajatlar prognozi	Xarajatlar ijrosi	Transfertlar prognozi hamda ijrosi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 069,3	2 933,1	5 147,3	5 637,5	2 077,9
2	Andijon viloyati	4 087,3	3 782,0	6 001,1	6 757,4	1 913,8
3	Buxoro viloyati	4 232,4	3 898,8	4 593,5	5 348,1	361,1
4	Jizzax viloyati	2 415,6	2 151,1	3 304,2	3 847,2	888,6
5	Qashqadaryo viloyati	4 879,1	4 572,5	5 806,2	6 585,8	927,0
6	Navoiy viloyati	2 904,1	2 690,3	3 086,6	3 802,6	182,5
7	Namangan viloyati	3 564,7	3 391,4	5 548,7	5 983,4	1 984,0
8	Samarqand viloyati	5 191,7	5 312,6	6 780,2	7 678,6	1 588,5
9	Surxondaryo viloyati	3 104,5	2 989,1	4 937,3	5 541,5	1 832,8
10	Sirdaryo viloyati	1 502,1	1 528,1	2 403,9	2 752,1	901,8
11	Toshkent viloyati	5 668,0	5 448,4	6 185,3	7 041,6	517,4
12	Farg'ona viloyati	5 399,0	5 273,6	7 342,6	8 131,9	1 943,7
13	Xorazm viloyati	2 879,0	2 876,9	4 082,8	4 691,1	1 203,8
14	Toshkent shahri	9 163,3	10 176,8	9 677,2	13 013,0	513,9
	Jami:	58 060,1	57 024,6	74 896,7	86 811,6	16 836,7

Mazkur jadval 2024 yilda mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarning prognoz hamda ijro ko'rsatkichlarini, shuningdek, respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi transfertlar hajmini aks ettiradi. Umumiy natijalarga ko'ra, daromadlar prognozi 58060,1 mlrd so'm bo'lsa, uning ijrosi 57024,6 mlrd so'mni tashkil etib, reja 98,2 foizga bajarilgan. Aksincha, xarajatlar prognozi 74896,7 mlrd so'm bo'lgani holda, amaldagi ijro 86811,6 mlrd so'mga yetgan. Bu esa xarajatlarning prognozdan sezilarli darajada oshganini va budjetlararo qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatadi. Hududlar kesimida daromadlar bo'yicha eng yuqori ijro Toshkent shahrida (10176,8 mlrd so'm), Samarqand viloyatida (5312,6 mlrd so'm) va Farg'ona viloyatida (5273,6 mlrd so'm) qayd etilgan. Daromad prognozidan yuqori natija faqat ayrim hududlarda, xususan, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent shahrida kuzatilgan. Biroq ko'pchilik hududlarda daromadlar prognozi to'liq bajarilmagan, bu esa mahalliy daromad bazasini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Xarajatlar bo'yicha esa barcha hududlarda ijro prognozdan yuqori bo'lgan. Ayniqsa, Toshkent shahrida xarajatlar 13013,0 mlrd so'mga yetib, eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. Bu holat yirik shahar va aholi zich joylashgan hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlar hajmi nisbatan yuqoriligini anglatadi. Tartibga soluvchi transfertlar hajmi 16836,7 mlrd so'mni tashkil etib, asosan daromad va xarajatlar o'rtasidagi nomutanosiblikni yumshatishga xizmat qilgan. Umuman olganda, jadval mahalliy budjetlarda xarajatlar bosimi yuqori bo'lib qolayotganini va fiskal tenglashtirish mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur maqolada O'zbekiston mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining nomutanosibliigi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mahalliy budjet daromadlari jadal o'sib borayotganiga qaramasdan, hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblik muammosi saqlanib qolmoqda. Xususan, Toshkent shahri mahalliy budjeti daromadlari eng yuqori bo'lib, ayrim viloyatlarda esa past daromad ko'rsatkichlari qayd etildi.

Bu esa hududlar o'rtasida markaziy byudjetdan ajratiladigan subsidiya va tartibga soluvchi transferlarning ulushi juda katta bo'lib qolayotganidan dalolat beradi. Tahlil shuningdek ko'rsatdiki, mahalliy byudjetlarning 2024 yil uchun rejalashtirilgan xarajatlari ko'p hollarda prognozdan yuqori bo'lib, byudjet defitsitini keltirib chiqarayotgani aniqlanadi. Umuman olganda, maqola natijalari mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun daromad bazasini kengaytirish, xarajatlarni samarali boshqarish va transferlar tizimini isloh qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Birinchiidan, mahalliy daromadlar bazasini kengaytirish maqsadida soliq siyosatini yanada takomillashtirish, mahalliy soliqlar va yig'imlar bazasini kengaytirish hamda tadbirkorlik va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha budjet daromadlarini jalb qilish zarur.

Ikkinchiidan, byudjet xarajatlarini optimallashtirish uchun mablag'larni maqsadli va samarali rejalashtirish, ortiqcha sarflarni qisqartirish va shaffof moliyaviy nazoratni kuchaytirish zarur.

Uchinchiidan, markaziy byudjetdan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan transferlarni takomillashtirish, ularni hududlarning moliyaviy salohiyati va ehtiyojlariga qarab aniq mezonlar asosida ajratish zarur.

To'rtinchiidan, mahalliy budjet boshqaruvini takomillashtirish maqsadida elektron byudjet tizimini keng joriy etish, budjet ijrosini monitoring qilish va hisobot berishni takomillashtirish, shuningdek mahalliy moliya mutaxassislarining malakasini oshirish zarur.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Gorina, E. (2013) *Financial Sustainability of Local Governments: Effects of Government Structure, Revenue Diversity, and Local Economic Base*, Doctoral dissertation (Tempe: Arizona State University). Url: <https://www.proquest.com/docview/1355730969>.

Malikov T., S., & Olimjonov O., O. (2019). *Moliya. Darslik, Toshkent Moliya instituti.* – Toshkent. 887-b.

Farmon (2017) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 07.06.2017 yildagi PF-5075-son.* Url: <https://lex.uz/docs/3232501>.

Sarsenbaev, B., & Allaniyazova, N. (n.d.) *Formation of Forecast Values of Budget Revenues in Uzbekistan. Economic Development and Analysis, 2(8), 399-404.*

Sarsenbaev, B., et al. (2025, November). *Econometrical modeling of dynamic processes of labor market development. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3331, No. 1, p. 040019).* AIP Publishing LLC.

Sarsenbayev, B., Kengesbayeva, S., & Kengesov, D. (n.d.) *Mintaqaviy Iqtisodiyotlarda Kapital Qo'yilmalarning Determinantlari: Qoraqalpog'istonda Aholi Va Byudjet Daromadlarini Ekonometrik O'rganish. Green Economy and Development, 3(4), 665405.*

Shernaev, A., A., & Jiyanova N., E. (2019). «Davlat moliyasini boshqarish» darslik. –T.:TFL. – 365 b, (189-194 betlar).

Takaaki, Masaki, (2018). *The impact of intergovernmental transfers on local revenue generation in Sub-Saharan Africa: Evidence from Tanzania, World Development, Volume 106, Pages 173-186, ISSN 0305-750X, https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2018.01.026.*